

## TUYABO‘G‘IZ SUV OMBORIDA MEHNAT SHAROITLARI

**N.Q. Rajabov., A.J. Kurbonov**

“Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti”  
Milliy tadqiqot Universiteti assistent o‘qituvchi

**Ergashov Sayfullo Nurullo o‘g‘li**

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”  
Milliy tadqiqot Universiteti Mehnat muhofazasi, ishlab chiqarish va texnologik  
jarayonlar xavfsizligi (qishloq va suv xo‘jaligida) M21-23

### ANNOTATSIYA

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha vakolatlarining keng qamrovli modeli ishlab chiqilgan, shu jumladan nazorat organlarining talablari, shuningdek mahalliy normativ hujjatlarning talablari va korporativ xavfsizlik siyosati. ushbu model quyidagilarga qo‘yiladigan talablar to‘plamiga asoslanadi texnik-texnologik, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy vakolatlar shaxta xodimlarining turli toifalari, zarur javobgarlik sohalarini ko‘rsatgan holda mehnatni muhofaza qilish va kasbiy muhim fazilatlarni hal qilish vakolatlari, mehnat funktsiyalarini xavfsiz amalga oshirish uchun zarur.

### ASOSIY QISM

Suv omborini to‘ldirish va bo‘shatishni inshootlarning ishonchliligiga tahdid soluvchi, xavf tug‘diruvchi va halokatli hodisalarni bo‘lmasligini aniqlab amalga oshirish lozim. Suv omborini ishlatishda undagi suv miqdori belgilangan suv miqdoridan oshmasligini ta‘minlash va suv omborining ish rejimini mutloq aniqlik bilan amalga oshirish muhim sanaladi.

Suv omborining ishlash rejimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: - davlat rejasini bajarishda suv zaxiralarini yaratish;

- barcha inshootlarning normal ishlashi uchun sharoitlar yaratish; - barcha inshootlarni xavfsiz va samarali ishlashini tashkil etish; - kam miqdorda loyqa cho‘kishini ta‘minlash;

- suv omborini ishlatish muddatini oshirish; - suv resurslarini sanitar me‘yorida saqlash;

- suv omborini, inshootlarni, suv ombori yaqinida joylashgan aholini, o‘zan pastida joylashgan maydonlar va h.k. larni havfsizligini ta‘minlash;

- suvdan foydalanuvchi va iste‘molchilarni har xil suvlilik yillarda suv bilan ta‘minlashni tartibga solish.[2]

Suv omborlaridan foydalanish jarayonida favqulodda holatlar sodir bo'lishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, bunday omillar sirasiga sel-toshqin suvlari, dovul shamollari, zilzila, inshootlardagi nosozliklar va h.k. kiradi.

Suv omborlarida sodir bo'ladigan favquloddagi holatlar:

1. Suv omborini me'yoridan ortiq to'lib ketishi;

Suv omborini to'ldirish tartibotiga amal qilmaslik;

Suv chiqarish inshootidagi nosozliklar (zatvorlarni ishdan chiqishi, inshootga loyqa-cho'kindilarning tushishi va x.k.);

Loyihada ko'rsatilgan maksimal suv sarfidan yuqori toshqinning kelishi; [1]

Qirg'oqdagi ko'chkining surilib havzaga tushishi va uning oqibatlari.

2. To'g'on yadrosida yoriqlarning paydo bo'lishi;

3. Drenaj tunellari va pastki b'efdan chiqayotgan sizot suvlar miqdorini me'yoridan oshib ketishi;

4. Drenaj tunellari va pastki b'efdan chiqayotgan sizot suvlarining loyqalanishi yoki qum paydo bo'lishi;

5. Suv ombori tanasining loyixhada ko'rsatilganidan ortiq cho'kishi yoki gorizonta siljishi.

6. To'g'on yuqori qiyaligi qoplamasining to'lqinlar ta'sirida buzilishi va uning ostidagi materialning yuvilib chiqishi.[3]

Kuchli yog'inlar oqibatidagi tabiiy sel-toshqinlar vaqtida suv omborining barcha inshootlarida kuchli zo'riqish yuzaga keladi. Mazkur zo'riqishni kamaytirish maqsadida sel-toshqin suvlari daryo o'zaniga o'tkazib yuboriladi. Sel-toshqin suvlarini o'tkazish asosan suv omborining suv tashlash inshooti orqali boshqariladi.

Daryoda maksimal tezlik bilan paydo bo'ladigan katta miqdordagi oqimning kelish ehtimoli daryoning to'yinishiga bog'liq holda yilning ma'lum oylarida eng yuqori hisoblanadi.

Sel-toshqin suvlarini o'tkazishga tayyorgarlik ishlari aniq tadbirlar rejasi asosida amalga oshiriladi.

Tadbirlar rejasi sel-toshqinlarning xarakteri, vaqti, ko'lami bo'yicha avvaldan bashorat qilingan ma'lumotlarga asoslangan holda tuziladi.

Tayyorgarlik davrida quyidagi ishlar bajarilishi lozim: - inshootlarni ta'mirlash ishlarini nihoyasiga yetkazish; - avariya uchun materiallar zahirasini tekshirish;

transport va texnika vositalari hamda uskunalari shay holatga keltirish;

- suv ombori boshlig'i bilan doimiy aloqada bo'lish;

- havfli joylarni tunda yoritishni tashkil qilish;

- muhandis-texnik xodimlar navbatchiligini tashkil qilish.

Sel-toshqin suvlari tugagandan so'ng inshootlarning barcha buzilgan

joylarini aniqlash, tozalash va ta'mirlash-tiklash ishlari olib boriladi.

Ta'mirlash-tiklash, ishlari, o'tkazilayotgan, hududlarni, vaqtinchalik chegaralanib to'sib qo'yiladi.[6]

Foydalanishda iqtisodiy samaradorlikni ajratish mumkin bo'lgan tizimlar: bir vaqtning o'zida inspektor (nazorat) tarkibining sonini taxminan 30% ga kamaytirish bilan samaradorlikni oshirish va real vaqt rejimida oq holatiga ko'ra ishda ishonchlilik va tezkorlikni oshirish hamda nazorat qilinadigan ob'ektlarda muntazam ishlarni rejalashtirib unumdorligini yaxshilanishi. asosiy ilmiy izlanish va xulosalar, uslubiy qoidalar va amaliy tavsiyalar quyidagilarda keltrib o'tilgan:

Xavfli omillarni masofadan turib kuzatish usuli yaratildi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanish, bu mashinasozlik korxonalarida og'ir va baxtsiz xodisalarni oldini xavfsizligi darajasini nazorat qilish va kamaytirishga soddalashtiradigan yagona axborot timini tashkil etishga imkon bo'ladi.[5]


Ishlab chiqarishda xavfli ishlab chiqarish ob'ektlaridan foydalanishda xavfli omillarni masofadan turib monitoring qilish algoritmini amalga oshirish uchun radiochastotani identifikatsiyalash moslamalarining dasturiy kompleksi yaratilib, bu axborot vositalaridan foydalanish bilan tavsiflanadi-axborot bilan ta'minlaydigan zamonaviy ishlashga asoslangan aloqa tizimlari qulay xavfsizligini monitoring qila bilishi va faoliyatiga kiritishdir.

Tuyabo'g'iz suv ombori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini tashkil etishi to'g'risida"gi 2018-yil 17-apreldagi PQ-3672-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jalik vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2018-yil 3-iyuldagi 500-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining 39-sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan. Suv resurslarini boshqarish sohasida. Tuyabo'g'iz suv ombori O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligiga bo'ysunadi. Tuyabo'g'iz suv ombori. o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, Suv xo'jaligi vazirligining buyruqlariga hamda ushbu Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi. Tuyabo'g'iz suv omborining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi. Boshqarmasi va uning tarkibiga kiradigan tashkilotlar yuridik shaxslar hisoblanadi, ular O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan

muhrga va blankalarga, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligida g‘aznachilik shaxsiy hisob raqamlariga, banklarda hisob raqamlariga ega.[4]

- Tuyabo‘g‘iz suv omborining rasmiy nomlanishi: davlat tilida to‘liq “Tuyabo‘g‘iz suv ombori joylashgan manzili (pochta manzili): 120100, O‘zbekiston, [Toshkent viloyati](#), Shahar [O‘rtachirchiq tumani](#).

Tuyabo‘g‘iz suv ombori boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi quydagi sxemada keltirilgan:



### 2.1-rasm. Tuyabo‘g‘iz suv ombori ning boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi


Ushbu tashkiliy tuzilmasda ko‘rishimiz mumkinki, Tuyabo‘g‘iz suv omborining tarkibi quydagilardan iborat:

- Tuyabo‘g‘iz suv ombori boshlig‘i
- boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
- boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosari
- bosh yuriskonsult
- kadrlar, hujjatlar va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi
- suv resurslari, gidrometrya va dispecherlik xizmati bo‘limi
- irrigatsiya tizimlari va gidrotexnik inshootlaridan foydalanish bo‘limi
- qurilish va ta‘mirlash ishlarini tashkil etish bo‘limi
- investitsiya jalb etish va inovatsion texnologiyalarni jorish qilish bo‘limi
- mehnat muhofazasi va Texnika xavfsizligi mutaxassisi
- jismoniy va yuridik shaxslarni muraajatlari bilan ishlash va devonxon va nazorat ishlari bo‘yicha mutaxassis
- avtotransport va mexanizmlardan foydalanish bo‘limi
- moliya-xo‘jalik bo‘limi bosh buxgalteri
- ombor mudiri
- elektr jixozlarini ta‘mirlovchi elektromonter

- boshqarmasi qorovuli
- xizmat xonalari farroshi.[4;6]

Yuqoridagi barcha bo‘limlar (xo‘jalik va avtotransport va mexanizmlardan foydalanish bo‘limidan tashqari) quydagilarni bilishi kerak: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, sohaga doir O‘zbekiston Respublikasi qonunlarini, Oliy Majlis Palatalarining qarorlari va boshqa qonuniy hujjatlarini, Prezident Farmonlari, qarorlari va farmoyishlarini, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlarini, Suv xo‘jaligi vazirining buyruqlari, farmoyishlari, jamoa shartnomasi, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, yong‘in va texnika xavfsizligi qoidalarini; ish yuritishning zamonaviy vositalaridan (kompyuter, faks, kseroks, skaner, internet) foydalanishni va o‘zbek tilini bilishi kerak.

Tuyabo‘g‘iz suv ombori boshqaruv tuzilmasi quyidagi sxemada keltilgan.



## 2.2-rasm Tuyabo‘g‘iz suv omborining boshqaruv tuzilmasi

Ushbu tuzilmaning afzalliklari quyidagilardan iborat: muayyan funktsiyalarni amalga oshirish uchun mas‘ul bo‘lgan mutaxassislarning yuqori malakasi, maxsus masalalarni hal qilishda rahbarlarni o‘rni, boshqaruv funktsiyalarini ketma-ketligi belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlaydi.[4]

Taqiqlangan hududlarda shaxslarni cho‘milishni oldini olish choralarini ko‘radi. Boshqarma hisobidagi mashina-mexanizm, elektr bilan ishlaydigan uskunalari, jixozlarni xavfsiz ishlashini nazorat qiladi. Aniqlangan kamchiliklarni joyida bartaraf qilish choralarini ko‘rib boradi. Mehnat muxofazasi bo‘yicha hisobotlarni yuqori tashkilotlarga taqdim qiladi. Bevosita boshliq o‘rinbosari topshiriqlarini bajaradi.

Hozirgi kunda Tuyabo‘g‘iz suv ombori tassarufidagi tashkilotlarda jami 1,8 mingdan ortiq xodim faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shularning 50 dan ortig‘i boshqarmaning o‘zida mehnat qiladi. 2022 yil yanvar holatiga ko‘ra boshqarmada 51 kishi faoliyat olib borgan. Quyidagi 1-jadvalda boshqarmada yillar bo‘yicha xodimlar soni tog‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.[6]

1-jadval.


Tuyabo‘g‘iz suv ombori yillar bo‘yicha xodimlar soni tog‘risida ma‘lumot

Tashkilot nomi	2017-2021 yillarda ishchi –xodimlarning o‘shish darajasi %	Yillar miqyosida				
		2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
Tuyabo‘g‘iz suv ombori	24 %	47	59	61	66	70

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, korxonada yillar davomida xodimlarning soni oshib borgan. Bu ish beruvchiga tomonidan qo‘shimcha qulay mehnat sharoitlarini yaratish ma‘suliyatini yuklaydi. [1]

Shuningdek boshqarmada, turli xil yosh toifasiga ega bo‘lgan xodimlar mehnat faoliyatlarini olib borayotgan bo‘lib, bularning ham tarkibi yillar davomida o‘zgarib turgan. Quyidagi 1-rasmda boshqarmada mehnat faoliyatlarini olib borayotgan turli xil yosh toifasiga ega xodimlar soni tog‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

	2017	2018	2019	2020	2021	2022
30 yoshgacha gacha	3	5	7	5	5	6
30-40 yoshdagilar	30	36	34	36	37	34
50 va undan yuqori yoshdagilar	14	18	20	25	27	30



**1.3-grafik. Tuyabo‘g‘iz suv ombori mehnat faoliyatlarini olib borayotgan turli xil yosh toifasiga ega xodimlar soni tog‘risida ma‘lumotlar.**

1.3-grafikdan ko‘rinadiki, Suv omborda faoliyat yuritayotgan xodimlarning aksariyatini 30-40 yoshgacha bo‘lgan yosh xodimlar tashkil etadi. xodimlarni malaka

va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borish, jumladan ularni jismoniy-fiziologik holatidan kelib chiqib xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. [1]


Tuyabo‘g‘iz suv ombori an‘anaviy ravishda kadrlarni malakasini oshirishga katta e‘tibor beradi. Malaka darajasi ish tajribasi va faoliyati davomida o‘sib boradi. Buni biz olib borgan faoliyat davomida ish ko‘lamiga ko‘ra va oshirilgan malakaga ko‘ra ketma-ketlikda tuzishimiz mumkin.

Ishlab chiqarish hech bir jarayon yo‘qki u insonlarga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Shu nuqtai nazardan, Tuyabo‘g‘iz suv ombori va uning tasavvuridagi tashkilotlarda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar quydagi 1.2- jadvalda keltirilgan.[2]

1.2- jadval

Tuyabo‘g‘iz suv ombori va uning tasavvuridagi tashkilotlarda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar

Kasblar	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	Hammasi
Elektromantiyor	1	0	1	0	0	1	1	1	0	0	5
Buldozorchi	0	1	0	1	0	1	1	0	0	1	5
Ekskovatorchi	1	0	0	0	0	1	0	1	1	0	4
Tokar ustasi	0	1	0	0	1	0	1	1	0	0	4
Ishchi	1	1	0	1	0	0	0	0	0	1	4
Mexanik	0	1	0	1	0	1	0	1	1	0	5
Yuk mashinasi haydovchisi	0	0	1	1	0	0	1	0	0	0	3
Payvandchi	0	1	0	0	1	0	0	1	1	0	4
Boshqa	1	0	1	0	0	0	0	0	1	0	3
Jami	4	5	3	4	2	4	4	5	4	2	37



**Tuyabo‘g‘iz suv ombori va uning tasarrufidagi tashkilotlarda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar**

Tuyabo'g'iz suv ombori direktor rahbarlik qiladi, uning vazifalari mehnat jarayonlarini uzluksiz amalga oshirish, texnika va texnologiyalarni takomillashtirish, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, malakasini oshirish, lavozimga tayinlanishni o'z ichiga oladi. Direktor hujjatlarni nashr etadi, tasdiqlaydi, imzolaydi, nazorat qiladi. Mustaqil ravishda qaror qabul qiladi, buyruq beradi va muayyan qarorlar qabul qiladi, buyruq beradi va tashkilot manfaatlari uchun muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Tashkilot direktori tashkilot faoliyatining barcha jihatlarini va unga bo'ysinuvchilari uchun mas'uldir, shuningdek jamoada qulay ma'naviy-psixologik muhit yaratadi.

Tuyabo'g'iz suv ombori mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi mutaxassisli funksional vazifalari.[5]

Boshqarmada mehnat muxofazasi va texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda amaldagi qonun-qoidalariga rioya kilinishini nazorat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-sentyabrdagi 263-son qarori ish o'rinlarini mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jaroxatlash xavfliligi yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomi asosida ish tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyul 286-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida ishni tashkil etish. Ishga yangidan qabul qilinayotganlarni va amaliyot o'tash uchun kelgan talabalarni birlamchi yo'riqnomalardan o'tkazadi. Bo'limlarda o'tkaziladigan yo'riqnomalarni amaliyotda bajarilishini nazorat kilib boradi.[5] Davlat nazorat organlarining ko'rsatmalarini bajarilishini ta'minlash. Tabiiy texnogen va baxtsiz hodisalarni tekshiruv ishlarida bevosita qatnashadi. Yakka himoyalani vositalaridan foydalanish, bakteriologik va ximiyaviy zararlanishni oldini olishda chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda xavfsizlik talabnomalar bajarilishini nazorat qiladi.[6]

## **XULOSA**

Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofaza qilish fanining ta'lim muassasalarida tizimli o'qitishni joriy etish, mamlakatimiz aholisini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar muhofazalanishni, sanoat korxonalarida mehnat xavfsizligi, sanitar-gigenik holatlar hamda inson va atrof tabiiy muhitga keltiriladigan zararlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning majmuasi demakdir.

Korxonada mehnatni muhofaza qilishning ma'muriy-jamoatchilik nazorati mavjud. Har bir obektda ishlab chiqarishning har bir uchastkasida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish bo'yicha ishlarning bajarilishi haqida yozuvlar va belgilar doimiy ravishda saqlanadigan nazorat jurnallari mavjud.

Xodimlar va mutaxassislarni tayyorlashni tashkil etish va amalga oshirishni ta'minlash, keyinchalik mehnatni muhofaza qilish bo'yicha ko'rsatmalar qoidalarini bilish qisman yo'lga qo'yilgan.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustdagi "gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 28-sentyabrdagi “xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonuni.
3. А.Ж.Курбонов, Л Галимова. Мониторинг и прогнозирование сейсмических явлений на территории Республики Узбекистан Fan, muhofaza xavfsizlik. Ilmiy amaliy jurnal 2019, №2(3). Б.9-12..
4. Bakiyev M.R., Nosirov B., Qaxxorovo‘. gidrotexnika inshootlari. t.: 2019. – 361 b.
5. A.J.Kurbonov F.I. Kushnazarov H.A. Rustamov; Sh.A. Tillaev Application of radiomonitor system in mountainous and mountainous territories of railway transport *Academicia an international Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal)* 3, March 2021
6. Bakiyev M.R., Tursunov T.N., Durmatov J. suv xo‘jaligi tashkilotlari ekspluatatsiya hizmati ishini tashkil etish buyicha ko‘rsatmalar. o‘zr qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, timi. –t.: 2006 y. – 24 b.